



MILLIY IQTISODIYOTDA INNOVATSIYA FAOLLIGINI OSHIRISHDA XORIJIY INVESTITSIALARDAN FOYDALANISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Raximov Faxriddin

Bank moliya akademiyasi

ORCID: 0009-0009-7690-4210

faxriddinraximov9597@gmail.com

Raximova Dilnoza

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

ORCID: 0009-0007-6650-5721

dmamasoliyevaa@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada milliy iqtisodiyotni rivojlantrishni innovatsion faolligni oshirishda xorijiy investitsiyalarning o'rni va ahamiyati ochib berilgan, investitsiyalarni jalb etish tamoyillari ko'rib chiqilgan va yoritilgan. Shuningdek investitsiyaning mamlakat eksport va ipmortidagi tutgan o'rni ma'lumotlar tahlilida tatbiq etilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, xorijiy investitsiya, investitsion muhit, eksport, import, iqtisodiy o'sish, samarali investitsiya, yalpi ichki mahsulot.

ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ИННОВАЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ

Рахимов Фахриддин

Академия банковского дела и финансов

Рахимова Дилноза

Международная исламская академия Узбекистана

Аннотация. В статье раскрываются роль и значение иностранных инвестиций в развитии национальной экономики и повышении инновационной активности, рассматриваются и освещаются принципы привлечения инвестиций, а также роль инвестиций в экспорте и импорте страны. также применяется при анализе данных.

Ключевые слова: инновации, иностранные инвестиции, инвестиционный климат, экспорт, импорт, экономический рост, эффективные инвестиции, валовой внутренний продукт.

PRIORITY DIRECTIONS OF USING FOREIGN INVESTMENTS IN INCREASING INNOVATION ACTIVITY IN THE NATIONAL ECONOMY

Rakhimov Fakhriddin

Academy of Banking and Finance

Rakhimova Dilnoza

International Islamic Academy of Uzbekistan


Abstract: The role and importance of foreign investments in the development of the national economy and the increase in innovative activity are revealed in the article, the principles of investment attraction are considered and illuminated, and the role of investment in the country's export and import is also applied in the data analysis.

Keywords: Innovation, foreign investment, investment climate, export, import, economic growth, effective investment, gross domestic product.

Kirish.

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining zamonaviy tendentsiyalari jamiyat hayotida innovatsion texnologiyalar va bilimlarning roli ortib borayotgani bilan chambarchas bog'liq. Shuningdek globalashgan iqtisodiy muhitda xorijiy investitsiyalar mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida xal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi.

“Innovatsiya – bu bozor talabidan kelib chiqqan holda jarayonlar va mahsulotlarning sifatli o'sish samaradorligini ta'minlash uchun joriy etilgan yangilikdir. Inson intellektual faoliyati, uning fantaziyasi, ijodiy jarayoni, kashfiyotlari, ixtirolari va ratsionalizatorligining yakuniy natijasi hisoblanadi. Yangi iste'molchilik xususiyatlari yoki ishlab chiqarish tizimlarining samaradorligini sifatli oshirish orqali bozorga mahsulot (tovarlar va xizmatlar)ni etkazib berish – innovatsiyaga misol bo'la oladi. Innovatsiya – foydalanish uchun kiritilgan yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan mahsulot (tovar, xizmat) yoki jarayon, sotuvlarning yangicha uslubi yoki ish amaliyotidagi, ish o'rinlarini tashkil etishdagi va tashqi aloqalarni o'rnatishdagi yangi tashkiliy uslub hisoblanadi” (Norova, 2024)



1-rasm. Innovatsiyalar turlarga bo'linishi²⁰

Innovatsiyalarga asoslangan iqtisodiyotlar ishlab chiqarish jarayonlari, ta'minot zanjirlari va iste'molchilarning xohish-istaklarini inqilob qiladigan texnologiya yutuqlari bilan global savdo iqlimini tobora ko'proq shakllantirmoqda. Innovatsiyalar bo'yicha yetakchi davlatlar nafaqat yangi mahsulot va xizmatlarni yaratmoqda, balki xalqaro savdoning tabiati va ko'lamini ham qayta belgilamoqda. Raqamlashtirish va avtomatlashtirishdan tortib sun'iy intellekt va biotexnologiyaga qadar yangi innovatsion texnologiyalar an'anaviy savdo siyosati tartibini o'zgartirmoqda, endilikda tashqi savdoda qiymat yaratish va savdo uchun yangi yo'llarni, yangicha yondashuv va yo'nalishlarni ochmoqda.

Inson kapitali va boy tabiiy resurslar rezervuariga ega O'zbekiston kabi mamlakatlar uchun innovatsiyalarni o'zlashtirish tashqi savdo tarkibini takonillashtirish uchun katta salohiyat va imkoniyatlar deganidir. Ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarga sarmoya kiritish, tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish, kichik ishlab chiqarishni rivojlantirish va tarmoqlar bo'ylab texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish orqali mamlakatimiz eksport raqobatbardoshligini oshirish va tashqi savdoda raqobatbardosh mahsulotlar bilan ustunlikka erishish imkoniyatlaridan foydalanishi mumkin.

“O'zbekistonning nisbatan yuqori investitsion salohiyati va investitsiya faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratilganiga qaramay, innovatsiyalarga yo'naltirilgan investitsiyalar yetarlicha sust foydalanilmayapti, tadbirkorlik sub'ektlarining investitsiya faolligining pastligidan dalolat beradi. Shu munosabat bilan respublikada innovatsion siyosatni amalga oshirish iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish bilan chambarchas bog'liq bo'lishi, uning maqsadi

²⁰<https://mininnovation.uz/news/2229>.

ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, iqtisodiyotda keng ko‘lamli sifat o‘zgarishlarini ta‘minlash bo‘lishi kerak” (Sidirov, 2023)

“Innovatsiyani hayotga joriy qilishdan maqsad biror bir ijobiy natijaga erishishdir. Bundan shuni anglash mumkinki, innovatsiya sohasi o‘z-o‘zidan investitsiya sohasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida innovatsion-investitsion faoliyatning ustuvor yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni ko‘rishimiz mumkin:

korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish;

eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarining tashqi bozorlarda raqobatdosh bo‘lishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish va eksportni rag‘batlantirish uchun qo‘shimcha omillar yaratish;

ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag‘batlantirish hisobidan real sektor korxonalarining raqobatdoshligini oshirish;

elektroenergetika tizimini modernizatsiya qilish, energiya iste‘molini kamaytirish va energiya tejashning samarali tizimini joriy etish choralarini amalga oshirish;

ichki bozorda talabni rag‘batlantirish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash” (Taubayeva, 2024)

Biroq, tashqi savdo tarkibini o‘zgartirishda innovatsion texnologiyalarning to‘liq salohiyatini ro‘yobga chiqarish bir qator muammolarni, jumladan, infratu-zilma cheklovlari, malaka yetishmasligi va tartibga soluvchi to‘siqlarni hal qilishni talab qiladi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun mamlakatda bir qator ishlar amalga oshirilishi, jumladan jismoniy va raqamli infratuzilmani rivojlantirishga maqsadli investitsiyalarni, aholini savodxonlik salohiyatni oshirish tashabbuslarini va tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan tartibga soluvchi islohotlarni amalga oshirishi kerak bo‘ladi. Innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish asosida tashqi savdo tarkibini takomillashtirish O‘zbekiston va hozirgi jahon iqtisodiyoti talablariga moslashishga intilayotgan boshqa mamlakatlar uchun strategik muhim vazifadir. Innovatsiyalarning kundan-kunga o‘zgartiruvchi kuchidan foydalangan holda O‘zbekiston eksportni diversifikatsiya qilish, iqtisodiy o‘sish va barqaror rivojlanish uchun yangi imkoniyatlarni ochib, o‘zini global savdoning rivojlanayotgan manzarasida asosiy savdo sherigi sifatida ko‘rsatishi mumkin.

Adabiyotlar sharhi.

Iqtisodiy lug‘atda “Investitsiyalar – kapitalni uzoq muddatli qo‘yilmalar tariqasida sanoatga, qishloq xo‘jaligiga, transportga va boshqa tarmoqlarga sarf etiladigan xarajatlar yig‘indisini aks ettiradi” (Словарь, 1984) –deb ta‘riflangan. Iqtisodchi olim Samuelsonning (1947) fikriga ko‘ra, investitsiyalash daromadlarni joriy iste‘mol uchun ishlatmasdan, ularni kelajakda ko‘proq foyda olib, faoliyatni kengaytirish uchun sarflashdir. Rossiyalik olim Margolin (2021) “Investitsiyalar” darsligida “Investitsiyalar – pul mablag‘lari, maqsadli bank jamg‘armalari, qimmatli qog‘ozlar, texnologiyalar, mashina, asosiy vositalar va boshqa mulk ko‘rinishidagi kapital qo‘yilmalarni, shuningdek, pul qiymatiga ega bo‘lgan mulkiy va nomulkiy huquqlarni investorning strategik maqsadlarini ko‘zlab ishlab chiqarish va boshqa faoliyat obyektlariga kiritishdir”,–deb ta‘riflaydi.

Mihaela va boshqalar (2018) tadqiqotlarida milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning institutsional mexanizmi tadqiq etiladi. Tadqiqot natijalariga muvofiq mamlakat iqtisodiyotidagi institutsional sifat o‘zgarishlarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish tizimiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi qayd etiladi.

Andrianov (1999) ilmiy tadqiqotlarida milliy iqtisodiyot investitsion salohiyatining nazariy asoslari o‘rganilgan bo‘lib, investitsiya salohiyati doirasidagi kontseptsiyalar nazariy jihatdan umumlashtirilgan, uni oshirish uchun moliyaviy imtiyoz-lardan tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqligi ta‘kidlangan.

Charaeva (2014) ilmiy tadqiqotlarida tashkilotlarning real sarmoyalarini moliyaviy boshqarish jarayonlarining kontseptual asoslari o'rganilgan. Innovatsion yo'naltirilgan iqtisodiyot sharoitida real sarmoyalarni strategik moliyaviy boshqarish xususiyatlari bayon etilgan.

Uskovao (2013) ilmiy izlanishlarida iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini ta'minlash vazifasi strategik ahamiyatga ega ekanligi, uning yechimi xomashyo eksportidan iqtisodiyotning innovatsion modeliga o'tishini talab qilishi, bu borada investitsiyalar asosiy ahamiyatga ega ekanligi asoslab berilgan.

Prusak (2001) iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va iqtisodiy o'sish uchun real sharoitlarni ta'minlash umuman davlatda ham, mintaqalarda ham investitsiya faoliyatini faollashtirishni talab etishni ta'kidlay.

Karimov (2007) xorijiy investitsion korxonalar uchun makroiqtisodiy, qonunchilik va ma'muriy shart-sharoitlarni va imkoniyatlarni hisobga olgan holda barqaror soliq qonunchiligi tizimini joriy etish hamda iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, dasturini shakllantirish bilan bog'liq jarayonlar tadqiq etiladi.

Nodirxanov (2011) o'zining ilmiy tadqiqotlari orqali mintaqaviy darajada investitsiya faolligini oshirish usullari, mintaqalarda investitsiya muhitini baholash, imtiyozli investitsiya loyihalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlovchi qulay investitsiya muhitini shakllantirish jarayonlarini o'rganadi.

G'ozibekov, Nosirov (2023) ilmiy izlanishlarida investitsion salohiyatni oshirishda soliq yukini kamaytirish, fond bozorlari o'rnini keskin oshirish, xususiyl xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish uchun qulay investitsion va ishbilarmonlik muhitini shakllantirish tadbirlari samarali amalga oshirish bilan bog'liq jarayonlarni tadqiq etiladi.

Bababekova, Tursunov (2019) tadqiqotlarida faol investitsion jarayonlarni raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirishdagi o'rni, faol investitsiyalar orqali raqobatbardosh iqtisodiyotni shallantirishning xorij tajribasi va undan samarali foydalanish imkoniyatlari asoslanadi.

Ma'lumki, investitsiyalar va iqtisodiy o'sish o'rtasida sabab-oqibat bog'lanishi mavjud bo'lib, u taniqli iqtisodchi-olim, Nobel mukofotining laureati Samuelson tomonidan "akselerator prinsipi" (1947) orqali izohlab berilgan. Bu prinsipning mohiyati quyidagicha: "real yalpi ichki mahsulot hajmining o'sishi real investitsiyalar hajmining o'sishiga olib keladi, o'z navbatida, real investitsiyalar hajmining o'sishi yana real yalpi ichki mahsulot hajmining o'sishini ta'minlaydi..." Bu borada, Karamisheva (2009) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda zamonaviy iqtisodiy, munosabatlarning globallashuvi sharoitida investitsiyalarning milliy iqtisodiyot rivojlanishidagi ahamiyati, mohiyati ular tomonidan amalga oshiriladigan qator funksiyalar orqali ifodalangan. Iqtisodchi olimning fikriga ko'ra, "makro darajada investitsiyalarning quyidagi funksiyalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalarida asosiy fondlarni oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayoni;
- aylanma mablag'larni ta'minlash va to'ldirish jarayoni;
- moliyaviy aktivlarni sotib olish va sotish orqali kapitalni bir hududdan ikkinchi hududga o'tkazish;
- kapitalni mulkdorlar o'rtasida ulushlarni olish va boshqa korxonalarining aktivlariga investitsiya kiritish yo'li bilan qayta taqsimlash"

Umarov tadqiqotlarida (2018) iqtisodiyotning tegishli tarmoq va sohalariga investitsiya jalb qilish ko'lamini kengaytirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari va o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi.

Burxanov (2018) tadqiqotlari orqali hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning ilmiy-nazariy jihatlari o'rganilib, hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning muammoli jihatlari asoslangan hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.

Bozorov (2018) ilmiy izlanish-larida investitsiya muhitining omillari, xususiyatlari, xorijiy investitsiya-larni jalb qilish milliy iqtisodiyotning xalqaro indekslarda ishtirokiga bevosita bog'liqligi tadqiq qilingan.

Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish yo'llarini asoslashga yo'naltirilgan yuqoridagi tadqiqotlarda makroiqtisodiy sharoitlarni yaratish orqali investitsiya jarayonlari va iqtisodiy o'sishning faol sur'atlarini ta'minlash imkoniyat-lari o'rganilgan. Investitsiyalari hajmining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar orasida xususiy mulkning yuqori mavqe, raqobat muhitining mavjudligi, to'lovga qobiliyatli iste'mol bozorining o'rni bilan bog'liq jarayonlar tadqiq etilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida muammoga bag'ishlangan ilmiy ishlar va adabiyotlar tahlili; pedagogik kuzatish, suhbatlar, pedagogik tajriba-sinov ishlari, ekspert baholash usullaridan foydalanildi. Shuningdek O'zbekiston Resublikasi tovar va xizmatlar eksporti statistikasi 2018-yildan 2023-yilgacha olinib tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekistonning yalpi ichki mahsuloti (YaIM) oxirgi 5 yil ichida (2019-2023-yillar oralig'ida) 1,5 baravar o'sish ko'rsatgichini ko'rsatdi. 2020-yildagi pandemiya xolatida 'sish sur'atlarini pasayishini hisobga olmaganda, mamlakatimiz YaIMida oxirgi 5 yil davomida barqaror o'sish kuzatilgan. 2019-yildan boshlab 2023-yilgacha YaIM 60,28 mlrd dollardan 90,9 mlrd dollarni tashkil etib, 2020-yilni hisoblamaganda har yili qariyb 10 mlrd dollarga o'sib borgan. Mamlakat YaIMni bunday sur'atlarda o'sishi albatta mamlakatda iqtisodiy islohotlarni to'g'ri olib borilishi natijasidir. Jumladan oxirgi yillarda Prezidentimizning aynan shu sohani rivojlantirishga qaratilayotgan e'tibori alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bunday e'tiborlardan biri 2022-yil Prezident Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasida yalpi ichki mahsulot hajmi ilk bor 80 mlrd dollardan oshganini ma'lum qildi:

"Pandemiya, dunyodagi chuqur iqtisodiy va siyosiy inqirozlar, ziddiyatlarga qaramasdan, xalqimizning qahramonlarcha mehnati bilan erishilgan ayrim yutuqlarini aytib o'tishni o'rinli deb hisoblayman. Keng ko'lamli va samarali islohotlarimiz natijasida yalpi ichki mahsulot hajmi ilk bor 80 mlrd dollardan oshdi. Hammangizning xabaringiz bor, 2018-yilda bu ko'rsatkich 52 mlrd dollar edi. 2022-yilda esa 80 milliard dollardan oshdi. Bunday katta natijalar ilgari bo'lmagan" (Murojaatnoma, 2022)

O'zbekistonning tashqi savdosi 2019-yili 41,75 mlrd dollarni va 2020-yilgi pandemiya ta'sirida butun dunyodagi savdo aylanmasi pasayishi bizning mamlakatda ham sezildi, tashqi savdo shu yili 5 mlrd dollarga kamayib 36,26 mlrd dollarni tashkil qildi. Undan keying uch yilda davomida esa bir xil sur'atda uzluksiz o'sib kelmoqda. Tashqi savdo 2021-yilda qariyb 6 mlrd dollarga o'sib 42,17 mlrd dollarni tashkil etgan bo'lsa, keyingi yillarda 8 mlrd dollar va 12 mlrd dollarga ko'payib 2023-yilda 62,57 mlrd dollarni tashkil etdi. 2019-yil O'zbekiston tashqi savdosi YaIMning 69,3 foizni tashkil qildi. Bunday ko'rsatkich mamlakat ichki iqtisodiyotini tashqi iqtisodiyotga bog'liqlik darajasini belgilaydi. Bu ko'rsatkich 2020 yili 60,2 foizni, 2021-yili 60,6 foizni, 2022-yili 62,2 foizni va 2023-yilga kelib 68,8 foizni tashkil etdi. Bundan ko'rish mumkinki O'zbekiston iqtisodiyotini tashqi savdoga bog'liqlik darajasi yildan yiga oshib bormoqda. Buni ko'p jihatdan tahlil qilish mumkin, agar eksporning o'sib borishi yuzasidan bunday o'sish sur'atlari kuzatilsa bu mamlakatda ishlab chiqarish ko'payotganini va buning natijasida esa mamlakat tashqi savdodan manfaatdor ekanligini bildiradi. Agar importning o'sishi natijasida bunday o'sish sur'ati kuzatilsa, mamlakat ichki bozori tashqi ishlab chiqaruvchilarga bog'lanib qolganligini bu esa salbiy natijalar keltirib chiqarishi mumkinligini ifodalaydi.

Mamlakatimiz 2019-yil jami 17,46 mlrd. dollarlik eksport ko'rsatkichiga ega bo'lgan bo'lsa, 2020-yilga kelib umujahon karantin xolatida pasaydi va 15,1 mlrd. dollarni tashkil etdi.

Keyingi yillarda esa ketma-ket o'sish sur'atlarini ko'rsatib kelmoqda, 2021-yili 16,66 mlrd. dollar bo'lgan bo'lsa, keying yilga kelib yaqin 3 mlrd. dollarga ko'payib 19,31 mlrd. dollarni tashkil qilgan. 2023-yilda esa jami eksportimiz 24,43 mlrd. dollar, ya'ni o'tgan yilga nisbatan qariyb 5 mlrd. dollarga yoki 26,5 foizga ko'payganini ko'rishimiz mumkin. Mamlakat eksportini ortib borishini so'nggi yillardagi sohadagi islohotlar va mamlakatdagi ishlab chiqarishni ortib borishi natijasi fonida amalga oshirilmoqda, xususan, bu sohada amalga oshirilayotgan so'nggi 5 yil ichidagi quyidagi islohotlarni keltirish mumkin:

"Mamlakatimizdagi qulay biznes muhiti samarasida so'nggi yillarda chet el korxonalarini 5 mingtadan 16 mingtaga ko'paydi. Har bir tuman va shaharga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar kirib keldi. Eksport qiluvchi korxonalar soni besh yilda 4 ming 500 tadan 7 ming 200 tagacha ko'paydi. Eksport qilinayotgan mahsulot turlari ham 1 ming 500 tadan qariyb 3 mingtagacha oshib, geografiyasi 139 ta mamlakatdan 164 taga yetdi. Tayyor mahsulot eksporti 2 baravarga, ularning tovarlar eksportidagi ulushi 50 foizdan 65 foizga oshdi. Bu sur'atni izchil davom ettirib, joriy yilda qariyb 11 milliard dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish rejalashtirilgan. Hududlarda 23 milliard dollarlik 12 mingta yangi loyiha, shu jumladan, 3 mingdan ziyod sanoat loyihalari ishga tushirilishi belgilangan. Endi ularni amalga oshirib, xalq manfaatiga yo'naltirish kerak dedi Prezident Sh.Mirziyoyev 2023-yil "investitsiya, eksport va xalqaro hamkorlik masalalari" bo'yicha bo'lin o'tgan yig'ilishda"²¹.

"Ichki bozorda teng raqobat bo'lishi uchun eksport mahsulotlari ishlab chiqarishga olib kelingan xomashyo import bojidan ozod etiladi. Lekin, bir narsani aniq tushunib olish lozim, biz qo'shilgan qiymat solig'ining uzluksiz zanjirini yaratish bo'yicha katta islohotlarni olib boryapmiz. Shu bois, maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga qo'shilgan qiymat solig'ining ortiqcha qismini 7 kun ichida qaytarib berish tartibi joriy qilinadi. Ushbu tartib tadbirkorlarga bir yilda o'rtacha 350 milliard so'm qo'shilgan qiymat solig'ini qisqa muddatda qaytarib olish va aylanma mablag'larini ko'paytirish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, chetdan olib kelingan tovarlar uchun qo'shilgan qiymat solig'ini 120 kun davomida bo'lib-bo'lib to'lashda tadbirkorlarga foiz hisoblanmaydi va garov talab etilmaydi", deb Prezident Sh.Mirziyoyev ta'kidladi"²².


2019-yil YalMning 29 foizini eksport tashkil qilgan bo'lsa va keyinchalik pandemiya davrida 25 foizga pasayish bo'lgan. 2021-yildan boshlab mamlakat eksporti o'sib kelmoqda lekin bu o'sish YalMning o'sishiga nisbatan pastroq bo'lishi mamlakat iqtisodiyotini tashqi bozorlarga bog'liqlik darajasini ortib borishiga sabab bo'ladi. 2021-yil bu ko'rsatkich 24 foizni va 2022-yili ham aynan 24 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 27,4 foizni tashkil qildi. Bundan ko'rish mumkinki oxirgi yillarda eksportning o'sishi YalMga nisbatan yaxshiroq natijani ko'rsatmoqda. Lekin ta'kidlash joizki, mamlakat eksportining katta qismi oltin eksportiga to'g'ri kelishi, bu sohadagi hali istiqbolli islohotlarni talab qiladi.

Mamlakatimizning 2023 yildagi eksportda eng katta ulush oltin eksportiga to'g'ri keldi 8153,8 mln. AQSh dollar. Keyingi o'rinlarda xizmatlar eksporti 5179,7 mln. (21,2 foiz), sanoat tovarlari 4058,7 mln. (16,6 foiz), oziq-ovqat mahsulotlari 1777,6 mln. (7,3 foiz), kimyoviy mahsulotlar va ulardan tayyorlangan buyumlar 1314,4 mln. (5,4 foiz), mashinalar va transport asbob-uskunalar 1305,2 mln. (5,3 foiz), turli xil tayyor buyumlar 1195,6 mln. (4,9 foiz), mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar 940,5 mln. (3,9 foiz), nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari 324,9 mln. (1,3 foiz), ichimliklar va tamaki 123,0 mln (0,5 foiz) va hayvonlar va usimliklar moylari (yog'lari), yoglar va mumlar 14,2 mln. (0,1 foiz) AQSh dollarini tashkil etdi.

²¹ <https://president.uz/oz/lists/view/6085>

²² <https://m.kun.uz/news/2021/08/20/eksport-mahsulotlari-ishlab-chiqarishga-olib-kelingan-xomashyo-import-bojidan-ozod-etiladi-prezident>

2023 yil eksport tarkibi



- Hayvonlar va usimliklar moylari
- Nooziq-ovqat xomashyo
- Turli xil tayyor buyumlar
- Kimyoviy vositalar va boshqalar
- Xizmatlar
- Sanoat tovarlari
- Ichimliklar va tamaki
- Mashinalar va transport asbob-uskunalari
- Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari
- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Boshqa tovarlar

1-rasm. O'zbekiston Respublikasi tovarlar va xizmatlar eksporti (Muhokama, 2023)

Yuqoridagi rasmdan ko'rimiz mumkinki, oziq-ovqat eksporti ham mamlakatimiz eksportida sezilarli darajada katta, ya'ni 2023-yil 1777.6 mln. AQSh dollarini yoki umumiy eksportning 7,3 foizini tashkil etgan. Umumjahon tan oladigan darajadagi sertifikatlarni joriy qilish va ularni oziq-ovqat eksportidagi, xususan meva va sabzavotlarga joriy etish, sertifikatlangan tovarlarni jahon standartlariga moslash, qadoqlash va sifat nazoratiga olish bilan eksport bo'layotgan mahsulotlarimizni jahon bozorida o'z mavqeini mustahkamlab borishga erishiladi. Bunday sertifikatlar mahsulotning bozordagi raqobatbardoshligini ta'minlab beruvchi me'zon sifatida ham xizmat qilishini jahon tajribasida ko'rish mumkin. Keyingi o'rinlarda meva va sabzavotlarni eksporti bilan shug'ullanuvchi korxonalarini joriy etish, bunda korxonalar meva va sabzavotlarni o'zlari qadoqlab, unga sertifikat olib, uni jahon bozoriga olib chiqish bilan shug'ullanishadi. Bunday korxonalarda eng asosiy mezon sifat hisoblansa, xaridorlar ishonchini tezda qozonishadi. Bunday korxonalarining eng asosiy vazifasi jahon bozoriga milliy mahsulotlarni tanitish hisoblanadi. Albatta, qadoqlash, ularni saqlash kabi xarajatlar mahsulot tan narxini oshirib yuborishi tabiiy, lekin shu xarajat qismi davlat tomonidan qoplab berilsa, bunday korxonalar ish faoliyatini olib borish uchun yordam hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

Milliy iqtisodiyotda innovatsiya faolligini oshirishda xorijiy investitsiyalardan foydalanishning ustuvor yo'nalishlarini yaxshilash maqsadida quyidagi takliflarni keltirish mumkin.

- Xorijiy investorlar bilan birga xorijiy investor uchun zarur bolgan infratuzilma yaratishda xamkorlik qilish.

- Davlat innovatsiya siyosatining obyekti bu - asosan xususiy biznes hisoblanadi davlatning bu boradagi siyosati mavjud ilmiy texnika yutuqlaridan xo'jalikda foydalanishga, ilmiy-texnika majmuada ichki aloqalarni mustahkamlashga qaratish lozimdir.

- Innovatsiyalarni davlat tomonidan rag'batlantrilishi nafaqat xususiy investorlar uchun risklarni kamaytiradi balki ilmiy tadqiqotlar startablari va yuqori texnologiyali korxonalarini rivojlantirish uchun qulay ekotizimni yaratadi

- Tibbiyot, axborot telekommunikatsiyasi, energetika, kabi innovatsion loyihalarni uzoq muddatli asosida yirik investitsiyalarni talab qiladigan sohalarni rag'batlantirish ham muhim hisoblanadi

- Davlat tomonidan innovatsiyalarni to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirishda grandlarni ya'ni ilmiy tadqiqot loyihalarini amalga oshirish uchun davlat tomonidan beriladigan tekin mablag'lardir.

Adabiyotlar/Lumepamypa/Reference:

Mihaela Peres, Waqar Ameer & Helian Xu (2018) *The impact of institutional quality on foreign direct investment inflows: evidence for developed and developing countries*, *Economic Research-Ekonomika Istraĥivanja*, 31:1, 626-644, DOI: 10.1080/1331677X.2018.1438906 <https://doi.org/10.1080/1331677X.2018.1438906>

Muhokama (2023) *Investitsiya, eksport va xalqaro hamkorlik masalalari muhokamasi* <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/merchandise-trade-2>

Murojaatnoma (2022) *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi*.

Norova S. Yu, and Baqoeva Sh (2024) "Innovatsion faoliyatni rivojlantirishning xorijiy tajribalari." *xalqaro konferensiya va jurnallarni sifatli indexlash xizmati 1.1: B. 434*.

Samuelson Paul A. (1947) *"Foundations of Economic Analysis"*. –Harvard University Press

Sidorov V. A., (2023) "innovatsiya iqtisodiyoti: texnologik yutuq muammosi." *Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali 3.2 b. 13*.

Taubayeva M. (2024) "O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatini innovatsion asosda rivojlantirish istiqbollari." *International Journal of Education, Social Science & Humanities 12.4: B. 57*.

Андреанов В.Д. (1999) *Россия: экономический и инвестиционный потенциал*. – М.: ОАО «Издательство «Экономика», - 662с.

Бабабекова Д.Ш, Турсунов Б.О. (2019) *Фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожланиш орқали рақобатбардош иқтисодиётни шакллантириш йўналишлари. Илмий-оммабоп рисола.-Т.: "Iqtisod-Moliya", 40 б.*

Бозоров Р.Ҳ. (2018) *Ўзбекистоннинг глобал индексларда иштирокини кенг таъминлаш – инвестиция муҳити жозибадорлигини оширишнинг муҳим омили. "Халқаро молия ва ҳисоб" илмий электрон журнали. № 4-5, август-октябрь.*

Бурханов А. (2018) *Худудларга хорижий инвестицияларни жалб қилиш-миллий иқтисодиёт барқарорлигини таъминлашнинг асосий омили. Biznes-Эксперт, №10.,7-13 бет.*

Ғозибеков Д, Носиров Э. (2007) *Ўзбекистон иқтисодиётига хорижий инвестицияларни жалб қилиш. Рисола. -Т.: "Iqtisod-Moliya". -Б.92.*

Карамышева А.Р. (2009) *Инвестиции и их роль в развитии экономики. Transport business in Russia.* <https://cyberleninka.ru/article/n/investitsii-i-ih-rol-v-razvitii-ekonomiki>

Каримов Н.Ф. (2007) *Иқтисодий интеграциялашув шароитида инвестиция фаолиятини молиялаштиришнинг бозор механизмларини жорий этиш масалалари. – Т.: Фан ва технология, – 240 б.*

Марголин А.М. (2021) *Инвестиции: Учебник. –Москва: Изд-во РАГС, –С. 26.*

Нодирханов У.С. (2011) *в Узбекистане: опыт проблемы, перспективы роста. - Т.: "Fan va texnologiya", 184 б.Прямые иностранные инвестиции.*

Прусак М.М. (2001) *Стратегия региона: инвестиции в экономику // Финансы. - № 1. - С. 6-8.*

Словарь (1984) Финансово-кредитный словарь–Т. 1. – М.: “Финансы и статистика”, – С. 470.

Умаров Ф.У. (2018) Инновацион-инвестиция фаол тадбиркорликнинг муҳим омили. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журналы. № 1, январь-февраль.

Ускова Т.В. (2013) Роли инвестиций в обеспечении устойчивого экономического роста. Экономические и социальные перемены: факты, тенденции, прогноз 6 (30), 45-59 стр.

Чараева М.В. (2014) Финансовое управление реальными инвестициями организаций: учебное пособие / М.В. Чараева. Москва: Альфа-М, 240 с.